

SAHNA ORTI VA RAHBARLIK BIR QALBDAN

Shukurullayeva Sevinchoy Qahramon qizi

O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali

“Musiqqa san’ati” fakulteti

San’atshunoslik: “Musiqashunoslik” mutaxassisligi

2 - kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **v.v.b.dotcent Rajabova Nodira Fattayevna**

Anotatsiya: Hamid Sapayev Kazakovich - o'z kasbini qalbdan sevgan, har bir bosib o'tga yo'lida ezgulik urug'ini sochgan inson. Ushbu maqolada uning bolalik yillari, kasbiy shakllanishi, ijodiy va rahbarlik faoliyati bilan bir qatorda, insoniy qadriyatlari, oilaviy muhiti va jamiyatdagi o'rni keng yoritilgan.

Kalit so'zlari: san'at, ustoz, rahbar, ijod, konsert, sahna, studiya, fortepiano, ovoz rejissori.

Abstract: Hamid Sapayev Kazakovich is a person who loved his profession with all his heart, who sowed the seeds of goodness in every step he took. This article extensively covers his childhood, professional formation, creative and leadership activities, as well as his human values, family environment, and place in society.

Keywords: art, teacher, leader, creativity, concert, stage, studio, piano, sound engineer.

Аннотация: Хамид Сапаев Казакович – человек, всем сердцем любивший свою профессию, сеявший добро в каждом шаге. В статье подробно освещаются его детство, профессиональное становление, творческая и лидерская деятельность, а также его человеческие ценности, семейное окружение и место в обществе.

Ключевые слова: искусство, педагог, руководитель, творчество, концерт, сцена, студия, фортепиано, звукорежиссер.

Ta'lim – bu jamiyat taraqqiyotining asosi, uning qalbi bo'lsa, san'at, ayniqsa musiqiy ta'lim – inson qalbining tarbiyachisi, ruhiyatning eng nozik torlarini chertuvchi vositadir.

Ayniqsa, musiqaga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, ularni milliy va jahon musiqiy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, istedodlarni yuzaga chiqarishda muhim o'rin tutadi. Bunday maskanlarning yuragi va boshqaruv markazi esa – ularning direktoridir.

Musiqiy dargohni boshqarish – bu oddiy rahbarlik emas, balki chin ma'nodagi fidoyilik va yuksak mas'uliyatni talab qiladigan sharaflı vazifadir. Chunki bunday ta'lim maskanlarida direktor faqatgina boshqaruv funksiyasini emas, balki san'at rivoji, yosh avlodning musiqiy tafakkuri va istedodini shakllantirishda bevosita ishtirok etuvchi ijodkor, yetakchi shaxs sifatida maydonga chiqadi.

Ushbu fikrlarni to'laqonli tasdiqlovchi shaxslardan biri – Urganch ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabi direktori Hamid Sapayev Kazakovichdir.

Hamid Sapayev bugun san'at va madaniyat sahosida xizmat qilayotgan yetuk rahbar sifatida tanilgan bo'lsa-da, uning shu darajaga yetishida uzoq yillik mehnat, bilim va tajriba yotadi. Uning hayot yo'liga nazar solsak, bu haqiqatni yanada chuqurroq anglash mumkin.

Hamid Sapayev Kazakovich 1971-yil 12-dekabrda Xorazm viloyatining Urganch shahrida ziyoli va mehnatkash oilada dunyoga kelgan. Oila yetti farzanddan iborat bo'lib, Hamid Sapayev ularning kenjasi edi. Oilada mehr-oqibat, hurmat va tarbiya ustuvor qadriyat bo'lib, ota-onasi farzandlarining barchasini vatanparvar, bilimli va odobli inson qilib voyaga yetkazishga intilgan. Otasi Sapayev Kazak (1931-2007) Urganch shahar Taksi saroyi xaydovchisi sifatida uzoq yillar mehnat qilgan, o'z kasbiga sadoqatli va halol inson edi. Onasi Sapayeva Zulfiya (1941-2015) esa uzoq yillar savdo sohasida Urganch shahar umumiy oziq-ovqat ta'minotikorxonasi sotuvchisi bo'lib faoliyat yuritgan, oilaparvar, mehnatkash va bag'rikeng ayol edilar. Ular farzandlariga doimo mehnatga halollik bilan yondashishni, ilmu ma'rifatning qadriyat ekanini o'rgatishgan.

Hamid Sapayev ilk bor 1978-yilda Urganch shahridagi o'rta maktabga qadam qo'ydi. Maktabda a'lo baholar bilan o'qib, intizomi, tirishqoqligi va odob-ahloqi bilan ustozlari va tengdoshlarining e'tiborini qozondi. U maktab davrida ayniqsa adabiyot, tarix va musiqa fanlariga alohida qiziqish bilan yondashgan. O'tkaziladigan bayram tadbirlari va musiqiy chiqishlarda doim faol ishtirok etib, sahna madaniyati bilan erta tanishdi. Uning san'atga, ayniqsa musiqaga bo'lgan qiziqishi oddiygina tasodif natijasi emas. Bu muhabbat uning

oilaviy muhitida, xususan otasi orqali shakllangan. U hali yoshligidayoq musiqaning inson qalbiga ta'sirini his qila boshlagan, kuylar bilan yashagan.

Otasi, zamonasining taniqli hofiz va O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozovning shaxsiy haydovchisi sifatida faoliyat yuritgan. Bu kasb unga nafaqat ma'suliyat, balki Komiljon Otaniyozovdek ulkan san'atkor bilan bevosita muloqotda bo'lish imkonini ham bergan. Otasi ushbu suhbatlar, musiqiy safarlar va ijodiy muhitlar ta'sirida san'atning mohiyatini chuqur his etgan va bu ruhiyatni o'z farzandlarining tarbiyasiga singdirishga ham harakat qilgan.

Kichik Hamid Sapayev otasining Komiljon Otaniyozov haqida zavq bilan gapirganlarini diqqat bilan tinglardi. Otasi unga K.Otaniyozovning sahnadagi chiqishlari, ohangdosh ovozi, musiqiy madaniyati va insoniy fazilatlarini haqida ko'p gapirib berardi. Bu hikoyalar Hamidning qalbida hayrat va havas uyg'otar, u ham kelajakda san'at bilan shug'ullanishni, xalqqa xizmat qiluvchi ijodkor bo'lishni orzu qilardi.

Uning otasi bu orzuni ko'zda tutgan holda, farzandining san'atga bo'lgan qiziqishini erta payqab, uni bu yo'nalishga yo'naltirardi. Aynan otasining ruhan tayyorlashi va moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashi sababli, Hamid Sapayev 12-yoshida Urganch shahridagi 1-sonli bolalar musiqa maktabining fortepiano bo'limiga o'qishga kiradi. Bu qaror uning hayotidagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi.

Musiqa maktabidagi tahsili davomida Hamid Sapayev o'z ustozlarining e'tiborini iste'dodi, tirishqoqligi va ijroga bo'lgan intilishi bilan tortdi. U har bir darsni katta ishtiyoq bilan o'zlashtirardi, fortepiano asbobida klassik asarlar ijro etishda badiiy ifodaning nozik jihatlarini anglab borardi. Maktabdagi turli konsertlar, sahna chiqishlari, madaniy tadbirlar uning musiqiy dunyoqarashini kengaytirardi.

1987-yilga kelib Hamid Sapayev o'zidagi san'atga bo'lgan cheksiz qiziqish va iste'dodini yanada rivojlantirish maqsadida Xorazm viloyatining Urganch shahrida joylashgan Matyusuf Xarratov nomidagi bilim maskaniga o'qishga kiradi. U yerda fortepiano bo'limida Tatyana ismli o'qituvchida tahsil olgan va to'rt yil davomida bilimini chuqurlashtirib, ushbu yo'nalishda mukammal tayyorgarlik ko'rgan.

Bu davr nafaqat musiqiy bilimlar bilan to'ldirilgan yillar, balki u o'zini izlagan, topgan va tarbiyalagan muhim bosqich edi. Darsdan tashqari vaqtlarda ham u

mashg'ulotlarini davom ettirar, har bir asar orqali musiqaning sirli olamiga yanada chuqurroq sho'ng'ir edi. O'zining mehnatsevarligi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, ustozlarga hurmati va san'atga ixlosi bilan kursdoshlar orasida alohida ajralib turardi.

Matyusuf Xarratov nomidagi bilim maskanida o'tkazgan to'rt yillik tahsil Hamid Sapayevning musiqiy tafakkurini mustahkamladi, uning ijodiy salohiyati va kasbiy yo'nalishini aniq belgilab berdi. Bu yillar davomida u nafaqat sahnadagi ijroga, balki musiqa ortidagi texnik jarayonlarga ham qiziqish bilan qaray boshladi.

Shu davrda unda san'atning boshqa yo'nalishlarini ham chuqurroq o'rganish, o'zini yangicha sohalarda sinab ko'rish istagi kuchaydi. Shu sababli 1991-yil Toshkent Davlat Konservatoriyasining ovoz rejissyorligi bo'limiga hujjat topshiradi va o'qishga qabul qilinadi.

Besh yil davomida nafaqat o'z kasbining nazariy asoslarini chuqur o'rgandi, balki amaliy ko'nikmalarni ham faol egallab bordi. O'quv jarayonida u sahna texnologiyalari, ovoz yozish va qayta ishlash, musiqiy asarlarni professional darajada tayyorlash kabi yo'nalishlarda bilim oldi. Har bir mashg'ulotga mas'uliyat bilan yondashar, ustozlarining ishonchini oqlashga intilar edi.

Talabalik davridayoq u O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida ovoz rejissyori sifatida faoliyat yurita boshladi. Bu esa unga o'rgangan nazariy bilimlarini real loyihalarda sinab ko'rish, sahna ortidagi murakkab texnik jarayonlar bilan bevosita shug'ullanish imkonini berdi.

Konservatoriyani tamomlagach 1998-1999-yillarda Urganch san'at kollejida fortepiano fani o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritdi. U bu davrda bir necha yosh avlodni tayyorlab, dars jarayonlariga zamonaviy yondashuvni olib kirdi.

1999-2006-yillar oralig'ida Xorazm viloyat teleradiokompaniyasida ish boshladi. Ish faoliyati davrida ko'plab konsert va tadbirlarda ovoz rejissyori sifatida ishlagan. Sahnada ortidagi texnik jarayonlar, jonli efirlar va yozuvlar ustida ishlash tajribasi unga katta amaliy bilim va ko'nikma berdi.

2006-yilda u ijodiy izlanishlarini mustaqil yo'nalishda davom ettirish maqsadida "Navo" nomli shaxsiy studiyasini tashqil qilgan. Ushbu zamonaviy ijodiy maydon orqali u ovoz yozish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. U bu davrda ham san'atdan

uzoqlashmay, ijodiy hamkorliklar, yangicha formatdagi loyihalar bilan shug'ullandi. Studiyadagi texnik uskunalar, shart-sharoitlar uni hududdagi kichik hajmdagi ovoz laboratoriyasiga aylantirdi. Aytish joizki, bu muassasa nafaqat san'atkorlar, balki yosh ijodkorlar uchun ham mashq va tajriba maydoniga aylandi.

2009-2013-yillarda u o'z faoliyatini yana Urganch san'at kollejida davom ettirib, ta'lim sifatini oshirish, yangi metodikalarni joriy etish va o'quv jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. O'tkazgan mahorat darslari, ochiq mashg'ulotlar va ijodiy uchrashuvlar orqali kollejda ijodiy muhitni mustahkamladi.

2013-2017- yillarda esa u "O'zbeknavo" estrada birlashmasining Xorazm viloyat bo'limi direktori lavozimida ishladi. Bu davrda u estrada san'ati sohasini rivojlantirish, ijodiy guruhlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, konsert-tadbirlar sifatini oshirish va yangi iste'dodlarni kashf etish yo'nalishida faol ishladi.

2018-2021-yillarda Hamid Sapayev "O'zbekkonsert" davlat muassasasining Xorazm viloyat bo'limi boshlig'i lavozimida ishladi. Bu bosqichda u madaniy hayotni jonlantirish, konsert tashkilotlarining texnik imkoniyatlarini oshirish, ijodiy jamoalarning huquqiy va tashkiliy jihatlarini mustahkamlash borasida samarali faoliyat olib bordi.

2021-2023-yillar oralig'ida esa u Xorazm viloyat Madaniyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i lavozimida xizmat qildi. Bu lavozimda u yoshlar bilan ishlash, an'anaviy san'atni rivojlantirish, festival va ko'rik-tanlovlarni tizimli ravishda tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. U rahbar sifatida jamoaviy ishlarda samaradorlikni oshirish, ijodiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratdi.

2023-yildan hozirgi kungacha Hamid Sapayev Urganch ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabi direktori vaqtincha vazifa bajaruvchi lavozimida faoliyat yuritmoqda. U bu lavozimda qisqa fursatda maktabning tashkiliy, ma'naviy va madaniy hayotiga e'tibor qaratib, ta'lim muassasasini yangilash, o'quvchilar uchun zarur sharoitlarni yaratish yo'lida muhim o'zgarishlar amalga oshirdi.

Avvalo, o'quv binosida keng ko'lamli ta'mirlash ishlari olib borildi. Sinfxonalar va o'quv zallari zamonaviy talablarga mos ravishda yangilandi. Maktab ichki makonida milliy ruhdagi chiroyli dekoratsiyalar bilan bezatish ishlari yo'lga qo'yilib, san'at ta'limiga

mos estetik muhit shakllantirildi. Bu nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchilarning ruhiy holati va san'atga bo'lgan mehrini kuchaytirishga xizmat qildi.

Hamid Sapayev tashabbusi bilan o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, dam olishlari va tabiat bilan yaqin bo'lishlari uchun maktab hududida chiroyli, go'zal bog' tashkil etildi. Ushbu yashil maskan san'at va tabiat uyg'unligini ifodalovchi tinch muhitga aylandi. O'quvchilar bu yerda ijodiy dam olishlari, darsdan so'ng musiqa asboblari mashq qilishlari va ochiq havoda o'quv suhbat mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Shuningdek, Hamid Sapayev maktab kutubxonasining faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. O'zi tomonidan kutubxonaga o'quvchilar va ustozlar uchun zarur bo'lgan ko'plab ilmiy, badiiy va metodik adabiyotlar sovg'a qilib, kutubxona fondini boyitdi. Endilikda bu joy o'quvchilarning mustaqil izlanishlari, darsdan tashqari o'qish va ilmga chanqoqligini qondirish uchun qulay maskanga aylandi.

Ma'naviy-marifiy ishlar doirasida maktabda konsert dasturlari, ijodiy uchrashuvlar va suhbat kechalari muvazam tashkil etilmoqda. O'quvchilar o'z iqtidorlarini sahnada erkin namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lib, yoshligidan san'at muhiti bilan yashashga o'rganmoqda. Bu esa ularning sahna madaniyati, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hamid Sapayevning ushbu tashabbuslari natijasida maktab hayoti yangilandi, ta'lim sifati oshdi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida mustahkam ijodiy hamkorlik shakllandi. Bugungi kunda u o'zining tajribasi, tashabbuskorligi va san'atga bo'lgan sadoqati bilan yosh avlod tarbiyasida o'chmas iz qoldirmoqda.

Hamid Sapayevning san'at sohasi bilan bog'liq uzoq yillik mehnat faoliyati davomida u nafaqat o'qituvchi va rahbar sifatida, balki ijodiy muhitda faol ishlaydigan tajribali mutaxassis sifatida ham o'zini namoyon qildi. Ayniqsa, u teleradiokompaniya, konsert tashkilotlari va mustaqil studiya faoliyati jarayonida O'zbekiston san'ati olamida o'z o'rniga ega bo'lgan mashhur san'atkorlar bilan yaqindan hamkorlik qilgan.

Uning hamkorlik qilgan san'atkorlari sifatida Og'abek Sobirov, Rahmatjon Qurbonov, Ortiq Otajonov, Bobomurod Hamdamov, Olmaxon Xayitova kabi xalq orasida tanilgan va sevilgan hofiz va xonandalar bor. Hamid Sapayev bu san'atkorlarning konsert

dasturlarida texnik ta'minot, ovoz sifati va sahna tayyorgarligida ovoz rejissori, tashkilotchi va texnik boshqaruvchi sifatida ishtirok etgan.

Bu kabi hamkorliklar unga katta tajriba berdi. Ayniqsa, jonli chiqishlarda ovoz sifati va sahna orqasidagi tayyorgarlik darajasi san'atkorlarning ijrosi darajasini belgilab beruvchi muhim omil sifatida ko'rilgani bois, Hamid Sapayev o'z ishiga har doim mas'uliyat bilan yondashdi.

Hayot yo'lida erishgan yutuqlarining muhim asoslaridan biri - bu uning mehrli va samimiy oilasidir. U katta, bilimli va mehnatsevar oila vakili sifatida ulg'aygan.

Tillayeva Zumrad Hamid Sapayevning turmush o'rtog'i bo'lib, 1975 - yilda Urganch shahrida tug'ilgan. U uy bekasi bo'lib, turmush o'rtog'ining barcha tashabbus va mehnatlarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ayniqsa, ular o'rtasidagi oilaviy bog'liqlik chuqur tarixiy ildizlarga ega, sababi Zumrad Saidjonovna - Hamid Sapayevning holasining qizi, ya'ni ular o'zaro yaqin qarindoshlar bo'lishadi.

Ular ikkita farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishgan. O'gli Sapayev Sarvarbek - O'zbekiston davlat filarmoniyasi Botir Zokirov nomidagi xor artisti sifatida ishlab kelmoqda. Qizi Sapayeva Shaxnoza - laboratoriya xodimi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Hamid Sapayev nafaqat mehribon ota, balki besh nafar nevaraning sevimli bobosidir. Nevaralarining har birining o'sishini katta mehr bilan kuzatadi, ularning tarbiyasiga faol aralashadi va ularga sabr, insonparvarlik, halollik va san'atga muhabbat kabi qadriyatlarni o'rgatadi.

Hamid Sapayev - O'zbekiston san'ati va madaniyatiga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan, o'z kasbini qalbdan sevgan, oddiylik va fidoyilikni hayot mezoniga aylantirgan insondir. Uning o'qituvchilikdan tortib, ovo rejissyorligi, san'at maktablarida rahbarlik lavozimlarigacha bo'lgan faoliyati, yaratgan imkoniyatlari va ilgari surgan tashabbuslari zahirida bitta maqsad mujassam - san'at va yosh avlod tarbiyasiga xizmat qilish.

Bugungi kunda u o'zining bilim va tajribasini yosh avlodga o'rgatmoqda, o'quvchilarning iqtidorini kashf etish, san'at va ma'naviyatga muhabbat uyg'otish yo'lida mehnat qilmoqda. U rahbarlik qilayotgan muassasada yaratilgan imkoniyatlar, estetik

muhit, yangilangan kutubxona, madaniy tadbirlar va mashhur san'atkorlar bilan uchrashuvlarning barchasi Hamid Sapayev rahbarligining samaradorligini ifodalaydi.

Shaxs sifatida esa u oilaparvar, kamtar, halol, vatanparvar inson bo'lib, hamkasblariga hurmatli, shogirtlariga mehribon ustoz sifatida tanilgan.

Uning hayoti va mehnat yo'li hozirgi va kelajak avlod uchun ibrat va namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "San'at va madaniyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. "San'at maktablari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami". – Toshkent, 2022.
3. Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi arxivi. Urganch ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabi faoliyatiga oid hujjatlar. – Urganch, 2023.
4. To'raxo'jayev, M. O'zbekiston san'atshunoslari ensiklopediyasi. – Toshkent: Fan va turmush, 2020.
5. Yo'ldoshev, A. San'at va rahbarlik psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
6. Jo'rayev, B. Ovoz rejissyorligi asoslari. – Toshkent: San'at nashriyoti, 2018.
7. "Mahalla va oila" jurnali. San'at va jamiyat: fidoyi insonlar haqida ocherklar. – Toshkent, 2022, №5.
8. Internet manbalari:
www.madaniyat.uz – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining rasmiy sayti
www.kultura.uz – San'at maktablari va ijodiy muassasalar haqidagi ma'lumotlar
www.uzreport.uz – San'at va madaniyat yangiliklari
9. Shaxsiy suhbat va yozma ma'lumotlar asosida:
Sapayev Hamid Kazakovichning tarjimai holi va faoliyati bo'yicha yozib qoldirgan ma'lumotlari (2025-yil, iyun–iyul).